

## XITOIY ADABIYOTIDA DETEKTIV ASARLARNING YARATILISH TARIXI VA ZAMONAVIY XITOIY DETEKTIV ROMANLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-693-695>

**Abdulazizova Mahbuba**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik fakulteti,

Xitoy filologiyasi kafedrasi magistratura 1-bosqich talabasi

+99894 6070162

[mahbubaabdulazizova001@gmail.com](mailto:mahbubaabdulazizova001@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: PhD N.A.Rasuleva**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xitoy adabiyoti tarixida yaratilgan detektiv asarlar haqida soʻz boradi. Qadimgi Xan, Uch podshohlik, Min, Sin sulolalari davrida detektiv asarlarning yozilish uslubi, Gongʻan romanlari, Gollandiyalik Gao Luopeyning xitoylik amaldor Di Rendji orqali afsonaviy Xitoyda jinoyatlarni ochishga qaratilgan “Di Gong ishi” asari, bundan tashqari XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, detektiv olamiga qadam qoʻygan detektiv yozuvchilar va ularning asarlariga batafsil toʻxtab oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** “Kechki Xan sulolasi tarixi”, “Di Gong ishi”, hukmga oid asar, holat, Chen Syaoping, Sun Liaoxun, Lu Danʻan, Chjou Dedun, syujet, izchillik, mantiq, izquvar.

Xitoy xalqi rivojlanishning oʻziga xos xususiyatlari, milliy merosga boʻlgan muhabbat, kitob chop etish ixtirosi tufayli ming yillar davomida oʻz madaniyati davomiyligini himoya qilishga muvaffaq boʻldi. Quldorlik va feodal tuzum, koʻchmanchilar va mustamlakachilar bilan boʻlgan urushlarda ham uzoq asrlarning koʻplab yodgorliklarini sotsializm davriga qadar asrab kelgan. Qadimiy yodgorliklar sifatida qoʻlyozmalar, adabiy asarlar ham hozirgi kunimizga qadar saqlanib qolgan. Shular orasida avvalgi davrlarda yaratilgan detektiv janriga oid asarlari ham uchratishimiz mumkin. Qadimgi Xitoyda detektiv asarlar deyarli yaratilmagan boʻlsa-da, shakl va mazmun jihatdan detektivni eslatadigan asarlar mavjud boʻlgan.

Xitoy detektiv romanini tashkil etuvchi asosiy omil – bu holat. “Kechki Xan sulolasi tarixi” kitobida hukmga oid holatlar koʻp uchraydi. Keyinchalik “Uch podshohlik” davrida “Sichqoncha oʻqidagi asal”, “Vey Shu”da “Oʻgʻri pichoq sotadi”, “Oʻlgan jasad iqrori”, “Buzilgan joʻja”, Min sulolasi davrida “I Chji Ban”, Sin sulolasi davrida esa “Shubhali qamoqxona toʻplami” asarlari yaratildi. Aytishimiz mumkinki, jinoyatni ochishga qaratilgan ushbu hikoyalar Xitoy detektiv romanlari dunyoga kelishi uchun asos boʻlib xizmat qilgan. Min va Sin sulolalari davrida Xitoyda Gongʻan romanlari mashhur boʻlgan. “Bao Gongʻan”, “Uch qahramon va besh solix inson” asarlari yaratilgan va bu asarlarda bosh qahramon halol va fidokor

Bao Zheng deb olingan. Uning harakatlari donoligi va moddiy dalillarga qaratilganligi bilan ajralib turadi, lekin u yozgan xatlar sehri tushlar bilan to‘lib toshgan edi. U ishni ochish uchun ilmiy bo‘lmagan omillar ko‘rsatadi.<sup>1</sup>

XX asrga kirgandan so‘ng, 1930-yillarda Xitoy adabiyoti Yevropa va Amerika adabiyoti ta‘sirida bo‘ldi. Chen Syaoping, Sun Liaoxun, Lu Dan’an va boshqa bir qancha yozuvchilar ketma-ket detektiv adabiyot olamiga qadam tashladilar. Detektivlar mavzusiga ko‘ra Cheng Syaoping yetakchilik qilar edi. Chen Syaoping dastlab Artur Konan Doylning “Sherlok Xolmsning to‘liq asarlari” asarini tarjima qilish orqali omma e‘tiborini tortdi. Kitobxonlarga detektiv asarlar manzur kelganini ko‘rgan yozuvchi o‘zining ellikdan ortiq maqoladan iborat asarini yaratdi. “Oq kiyimli yirtqich”, “Kulrang kiyimdagi odam”, “Qidiruv davom etadi”, “Qonli barmoq izi”, “Tukli sher”, “Boshsiz ish”, “Kesilgan barmoq bilan ziyofat”, “Yangi turmush qurganlar talonchiligi”, “Raqsdan keyingi uy” va boshqa asarlar o‘z davrida mashhurlikka erishdi. 1940-yillarda detektiv romanlar asosida ko‘plab kinofilm, ko‘rsatuvlar suratga olindi va ommalashdi.<sup>2</sup> 1950-yillarda Sobiq Sovet Ittifoqining antimaxsus romanlari ta‘sirida Xitoyda “Milliy bayram kuni soat o‘n”, “Xu Qiuying ishi”, “To‘rtinchi odam” kabi antimaxsus romanlar yaratildi. 1980-yillar jinoyatchilarni ayg‘oqchidan individual jinoyatlarga aylantirgan “huquqiy adabiyot”ning avj nuqtasi bo‘ldi. Masalan, 1980-yillarning boshlarida yozilgan “Atirgul hidining g‘alati holati” shubxasiz o‘sha davr uchun yangilik edi. Ushbu ajoyib asarlarning ayrimlarida inson tabiatining murakkabligi va jinoiy motivlar sabablari haqida to‘xtalib o‘tiladi, ammo umumiy olib qaraganda, bu asarlarning yutuqlari unchalik yuqori emas edi.<sup>3</sup>

XX asr ikkinchi yarmiga kelib, Zamonaviy Xitoy adabiyotining rivojlanishi Amerika va Yevropa adabiy jarayonlariga uyg‘un holda kechgan. Xitoy detektiv romanlari Sharq va G‘arb madaniyati to‘qnashuvi mahsuli bo‘lgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ayni shu davrda detektiv janrida ijod qiladigan bir qancha xitoylik yozuvchilar ijod maydoniga chiqishgan.

Ulardan biri Tsay Szyun bo‘lib, uning asarlari ketma-ket to‘qqiz yil davomida eng ko‘p sotilgan detektiv asarlar reytingini ushlab turdi. U an’anaviy shubxa yaratishga usta bo‘lib, o‘quvchilarga qahramon atmosferasini bera olgan. Szyun asarlarining ko‘pchiligi ekranlashtirilib, yaxshi natijalarga erishgan. Uning “Do‘zaxning 19-qavati”, “Kapalaklar qabristoni”, “Samoviy sir”, “Dunyo”, “Do‘zax o‘zgaradi” kabi mashhur asarlari mavjud.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> 汤锐. 神探迈克狐千面怪盗篇. 世界文学评论. – 2009. – № 1. – 第 298–300 页.

<sup>2</sup> Robert E. Hegel. [Reading Illustrated Fiction in Late Imperial China](#). — Stanford University Press, 1998. — С. 32. — 528.

<sup>3</sup> Захарова Н. В. [Переводы европейской литературы и рождение новой прозы в Китае](#) // Успехи современной науки / Институт мировой литературы имени А. М. Горькова РАН. — 2017. — Т. 2, № 1. — С. 137.

<sup>4</sup> Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.

Lan Ma ilk xitoy detektiv romanlarini yozgan ijodkor sifatida taniqli. U zamonaviy Xitoyda detektiv romanlar borasida ijod boshlagan eng avvalgi yozuvchilardan hisoblanadi. U yozgan asarlarning ko‘pchiligi xalqaro jurnallarda chop etilgan. Uning asarlari syujet va mulohaza yuritishga qaratilgan bo‘lib, o‘z asarlarida umumiy izchillik va mantiqqa alohida e‘tibor bergan. “Quyosh botishi kanyoni”, “Vampir ko‘rshapalak”, “Yulduz ayol yo‘qolgan tun”, “Sirli yashil karta”, “Yuzsiz odam”, “Osmon uzoqda emas” va boshqa shu kabi detektiv asarlari mavjud.<sup>5</sup>

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qadimgi Xitoyda detektiv romanlar o‘rniga hukmgaga oid asarlar mavjud bo‘lgan, har bir davrda o‘z kitobxonini topa olgan bir nechta hukmgaga oid asarlar yaratilgan. Bundan tashqari Xitoyda qadimda Gong’an romanlari ham mashhur bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, Amerika va G‘arb detektiv adabiyoti ta’sirida Xitoyda ham zamonaviy detektiv asarlar yaratish boshlanadi, hozirgi kunga kelib, detektiv roman yozuvchilari va bu romanlar ixlosmandlari soni ortib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 汤锐。神探迈克狐千面怪盗篇。世界文学评论。— 2009。— № 1。— 第 298–300 页。
2. Захарова Н. В. [Переводы европейской литературы и рождение новой прозы в Китае](#) // Успехи современной науки / Институт мировой литературы имени А. М. Горькова РАН. — 2017. — Т. 2, № 1. — С. 137.
3. Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп. ; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.
4. 汤锐。狐狸侦探。南京：江苏少年儿童出版社， 1995。— 271 页。
5. Robert E. Hegel. [Reading Illustrated Fiction in Late Imperial China](#). — Stanford University Press, 1998. — С. 32. — 528.

<sup>5</sup>汤锐。狐狸侦探。南京：江苏少年儿童出版社， 1995。— 271 页。